

**MAHALLIY BYUDJETLARNING MOLIYAVIY RESURLARINI  
SHAKLLANTIRISH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH  
MASALALARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11217277>

**Begmatova Pokiza Zayniddinovna**

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi**

**Аннотация:** Maqolada mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish asosida mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirish muhimligi ta'kidlangan, shuningdek, byudjet xarajatlari o'rtasidagi tenglik va barqarorlikni ta'minlash uchun iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish va ularni boshqarishni ta'minlash masalalari muhokama etilgan.

**Tayanch so'zlar:** byudjet tizimi, davlat byudjeti, mahalliy byudjetlar, mahalliy soliqlar, yig'implar, soliq stavkalari, iqtisodiy resurslar, daromadlar, xarajatlar, byudjet taqchilligi.

Bugungi kunda mamlakatimizda mahalliy byudjetlarni moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish borasida amalga oshirilayotgan usullardan biri byudjetlarni tartibga solish hisoblanadi. Ushbu tizimning bir qancha afzalliklari bo'lib, u hududlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasi turlicha ekanligiga qaramasdan, mahalliy byudjetlarni davlat tomonidan kafotlatlangan ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish uchun zarur mablag'lar bilan ta'minlash imkonini beradi, shuningdek ayrim hududlarning rivojlanish darajasini muvofiqlashtirish uchun zamin hozirlaydi va mahalliy hokimiyat organlarini umumdavlat soliqlari rejasini bajarishga rag'batlantiradi.

Ayni paytda, mahalliy byudjetlar daromadlarining o'sishi umumiy iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlaridan orqada qolayotganligi sharoitida Davlat byudjeti daromadlarini byudjetlar o'rtasida taqsimlashning amaldagi mexanizmini takomillashtirish, daromadlar bazasini hududlar o'rtasida taqsimlashning amaldagi holatini yanada yaxshilash, byudjet tuzilmasining bo'g'inlarida daromadlar bazasini

o'shish yo'nalishlarida ilmiy izlanishlarni davom ettirish, samarali va oqilona yechimlarni axtarib topish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Xususan, kam ta'minlangan oilalarga ajratiladigan ijtimoiy nafaqalarni, Davlat sanitariya-epidemiologiya nazoratini saqlash, xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini hamda shahar, tuman markazlari, shahachalar, qishloq aholi punktlarida yo'llarini kapital va joriy ta'mirlash belgilandi. O'z navbatida, "natijaga qaratilgan byudjetlashtirish" strategik maqsad va vazifalarni asosiy maqsad qilib o'z oldiga qo'yadi, davlat tashkilotlari faoliyatlari natijasidan ijtimoiy-iqtisodiy natijalar kutadi. Bu esa barcha resurslarni ma'lum bir dasturlar orqali sarflanishi orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari, "Natijaviylikka qaratilgan byudjetlashtirish" byudjet mablag'larini xarajat qilish orqali to'g'ri va yakuniy natijalarga asoslanadi. Quyida "Natijaviylikka qaratilgan byudjetlashtirish"ning hozirda amal qilib turgan byudjetlashtirishning "Xarajatlarga asoslangan byudjetni tuzish" mexanizmi bilan taqqoslaymiz va bu orqali ularning farqli tomonlarini ko'rib chiqamiz:

Byudjetlashtirishning xarajatlarga asoslangan usulining xususiyatlari:

- byudjetning maqsadi - davlat organlarining, tashkilotlarining va boshqa byudjetdan mablag' oluvchilarning har biri uchun byudjet klassifikatsiyasining moddalari bo'yicha qattiq nazoratni amalga oshirish maqsadida xarajatlar summalarini tasdiqlash;

- byudjet xarajatlarining ob'ekti bo'lib davlat organlari hisoblanadi. Byudjetning iqtisodiy va muassasalar bo'yicha tarkibi ustivor bo'lib hisoblanadi;

- byudjetni rejalashtirish quyidan-yuqoriga qarab amalga oshiriladi. Rejalashtirishda asosiy omil bo'lib resurslarga bo'lgan ehtiyojni asoslash bo'lib hisoblanadi. Byudjet bir yilga o'rnatiladi. Uni amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar asoslanmaydi. Rejalashtirish faqatgina vazirliklar va ularning smetalari asosida amalga oshiriladi;

- faoliyatni baholash xarajatlar va daromadlarning bir-biriga mos kelishi orqali va ularni amalga oshirish tartibi orqali tekshiriladi. Faoliyatni rivojlantirish va mablag'larni iqtisod qilish uchun stimuly mavjud emas, mavjud bo'lsa ham uning

ta'siri juda sust, mablag'larning smeta bilang o'ta chegaralanganligi bois, iqtisod qilish qiyin;

– byudjetni boshqarish asosan uni xarajatlar va daromadlar bo'yicha ijro etishni nazorat qilish orqali amalga oshiriladi. Mablag'larni xarajatlar moddalari bo'yicha bir-biriga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi yoki juda ham qiyin. Byudjet hisobraqamlarida qolgan qoldiq mablag'lar yil oxirida olib qo'yiladi. Bunda asosan markazlashgan tashqi nazorat xukmron bo'lib hisoblanadi. Xarajatlar yoki daromadlar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish uchun yuqori organdan ruxsat olish lozim.

Bu esa navbatdagi yil uchun ishlab chiqilgan mahalliy byudjet loyihasining byudjet va boshqa qonunchilikka muvofiqligini aniqlash, mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlari rejasining ob'ektivligini tahlil qilish, eng muhimi, aholi tomonidan ko'tarilayotgan, ularning e'tirozlariga sabab bo'layotgan muammolarni hal etish masalalarining byudjet loyihasida ko'zda tutilganligini ko'rib chiqish maqsadlariga xizmat qiladi.

Byudjet ijrosi bo'yicha deputat so'rovi deputatlik nazoratini amalga oshirishning eng muhim va zaruriy shakllaridan hisoblanishi to'g'risida so'z yuritildi. Qayd etilganidek, deputat tegishli hududda joylashgan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish talabi bilan deputat so'rovini yuborishga haqli.

Yana bir jihat. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda byudjet mablag'larining maqsadsiz sarflanishi, kamomad va o'zlashtirishlar, noqonuniy foydalanish holatlari tez-tez yoritilib, jamoatchilik tomonidan keng muhokama va e'tirozlarga sabab bo'lmoqda. Joriy yilning o'tgan davrida qariyb 8 mlrd. so'm byudjet mablag'lari talon-toroj qilingan. Deputatlik nazoratining ta'sirchan vositalaridan yana biri – mahalliy byudjet, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari ijrosi yuzasidan mas'ul mansabdor shaxslarning belgilangan muddatlarda hisobotlarini eshitib borish hisoblanadi. Iqtisodiyotning barcha sohalaridagi jarayonlarning kuchayishi, dunyodagi iqtisodiy globallashuv darajasining ortib borishi bilan moliyaviy qarorlar

qabul qilishda so‘nggi ma’lumotlarni qabul qilish, yig‘ish, qayta ishlash va ularni chuqur tahlil etishni muhim ahamiyatga egaligidan dalolat bermoqda. Shundan xulosa qilish mumkinki, mamlakatdagi mahalliy va umumdavlat moliyasining holatini real baxolash bilan bir vaqtda, xorijiy mamlakatlarda yuzaga chiqayotgan moliyaviy jarayonlarni o‘rganib, ular bilan uyg‘unlashgan holda dinamik tarzda amal qilishi, biz yuqorida ishlab chiqqan takliflarning hayotiylik darajasini oshiradi, deb hisoblaymiz. Shuningdek, yuqoridagilardan kelib chiqib tuman (shahar) miqyosidagi subventsiyalardan voz kechish uchun subventsiyadan chiqarish dasturida ko‘zda tutilgan bir qator tadbirlar bilan bir qatorda hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish va rag‘batlantirish orqali soliq to‘lovchilarni ko‘paytirish hamda soliq bazasini kengaytirish masalalariga yanada e‘tibor qaratilishi lozim. Mahalliy byudjet daromadlari bilan xarajatlarni to‘liq qoplash imkoniyati bo‘lmaganda byudjetlararo munosabatlar mexanizmi ishga tushadi hamda byudjet qonunchiligi doirasida tartibga soluvchi daromadlar va byudjetlararo transfertlar orqali quyi byudjetlar balanslashuvi amalga oshiriladi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, davlat byudjeti daromadlari yildan-yilga ortib bormoqda. Davlat byudjetidan ajratiladigan subventsiyalarga to‘xtalsak, ularning hajmi kamayib bormoqda. Ayni paytda, mahalliy byudjetlar daromadlarining o‘sishi umumiy iqtisodiy ko‘rsatkichlaridan orqada qolayotganligi sharoitida Davlat byudjeti daromadlarini byudjetlar o‘rtasida taqsimlashni takomillashtirish, daromadlar bazasini hududlar o‘rtasida taqsimlashning amaldagi holatini yanada yaxshilash, byudjet tuzilmasining bo‘g‘inlarida daromadlar bazasini oshirish yo‘nalishlarida ilmiy izlanishlarni davom ettirish, samarali va oqilona yechimlarni axtarib topish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Yuqorida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalarini inobatga olgan holda, bugungi kunda mahalliy byudjetlarning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish masalalarini o‘rganish natijasida quyidagi asosiy xulosa, taklif va tavsiyalarimizni aks ettiramiz. Hozirgi sharoitda maxalliy byudjet xarajatlar samarali va oqilona foydalanishning asosiy shartlaridan biri iqtisod normalariga qat’iy rioya

qilishdir. Buning uchun byudjetdan ijtimoiy-madaniy tadbirlarni moliyalashtiriladigan mablag'lardan tashkari boshqa xarajatlarni bosqichma-bosqich kamaytirish zarurati kuchaymokda. Hozirgi paytda byudjet mablag'larining asosiy qismi ijtimoiy-madaniy tadbirlar uchun ajratilgan ekan, bu nafaqat ushbu soxalarni rivojlantirishga, balki shu sohada ishlovchilarning ishlashi uchun sharoitlar yaratish, ulariing turli kommunal xizmatlarga bo'lgan extiyojlarini ma'lum qismi uchun qilinadigan xarajatlarini qoplashni ham ko'zda tutadi. Ya'ni, bunda ijtimoiy himoyani aniq adresli qilish mexanizmini joriy qilish lozimdir. Mahalliy byudjetlarning ijrosi davomida bo'sh bo'lgan mablag'larni qisqa muddatlarga bank muassasalariga sotish huquqini berish (chet davlatlarda ushbu huquq berilgan), byudjetga qo'shimcha mablag'lar ishlab topish imkoniyatini yaratadi. Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot moddasini ko'zda tutish juda muhimdir. Bunda nafaqat davlat kapital qo'yimalari, balki Mahalliy xokimiyatlar tomonidan ham kapital qo'yimalarni xajmini oshirishni qo'shimcha mablag'larining manbalarini topish va yo'naltirish lozimdir. Shu sababli, Mahalliy xokimiyatlar ixtiyorida xususiylashtirishdan tushayotgan tushumlarni qoldirilayotgan qismini Mahalliy byudjetlarni xarajatlari tarkibidagi taraqqiyot moddasiga jamlash va ularni ishlatish xududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida bu mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshiradi, deb o'ylaymiz

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

8. Akbarov M. A. et al. PRIORITIES FOR DEVELOPING THE INCOMES POTENTIAL OF THE REGIONS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 11. – С. 1334-1337.

9. Абдукаримович Қ. Х. ХУДУД ДАРОМАД САЛОҲИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА “БЮДЖЕТ ОРҚАЛИ ТАРТИБГА СОЛИШ УСУЛЛАРИ” ВА “МАҲАЛЛИЙ БЮДЖЕТЛАРНИ ТАРТИБГА СОЛИШ УСУЛЛАРИ” //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 4. – С. 384-400.

10. Кабулов Х. А. Приоритетные вопросы стратегии развития доходного потенциала региона //Экономика и бизнес: теория и практика. – 2020. – №. 9-1. – С. 147-150.

11. Кобулов Х. А. Место и роль доходов местного бюджета в улучшении доходного потенциала региона //Экономика и бизнес: теория и практика. – 2020. – №. 5-3. – С. 34-38.

12. Malikov T. et al. Methodological approaches to assessing and forecasting the tax potential of the region //Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT). – 2021. – Т. 12. – №. 11. – С. 7056-7060.

13. Malikov T., Kobulov K. Models of market economy formation and Interaction of fiscal policy //International Journal of Economic Growth and Environmental Issues-ISSN. – С. 2321-6247.

14. Shokirovich K. A. DIRECTIONS FOR OPTIMIZING LOCAL BUDGETS IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF REGIONS //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2023. – Т. 22. – С. 190-196.

